

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**

USMONOVA VASILA BOTIROVNA

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARIDA RAQAMLASHTIRISHNING
TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Usmonova Vasila Botirovna

Xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmlarini takomillashtirish 3

Усмонова Васи́ла Ботировна

Совершенствование организационно-экономических механизмов
цифровизации в сфере услуг 29

Usmonova Vasila Botirovna

Improvement of the organizational and economic mechanisms of digitization in
service industries.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**

USMONOVA VASILA BOTIROVNA

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARIDA RAQAMLASHTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4680 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bobanazarova Jamila Xolmurodovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raximberdiyev Quvonchbek Baxtiyorovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:


Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "25" oktabr kuni soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (382 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "09" oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "09" oktabr dagi № 93 raqamli reestr bayonnomasi)



J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, dotsent

B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi jahon va milliy iqtisodiyotidagi, jumladan xizmat ko'rsatish sohalaridagi sifat va miqdor o'zgarishlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon banki tadqiqotlarida "Internetdan foydalanuvchilar sonining 10 %ga ortishi milliy iqtisodiyot yalpi ichki mahsulot hajmini har yili 0,4-1,4 %ga oshirish mumkinligi"¹ ko'rsatilgan. Bugungi kunda jahonda xizmat ko'rsatishning iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar taraqqiyotidagi ahamiyatiga ko'ra mazkur sohani raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda, jumladan xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirishga ko'ra rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada, jumladan raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini asoslash; raqamlashtirishda xizmat ko'rsatishning maqbul tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini asoslash; innovatsion raqamlashtirilgan xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirgan holda jismoniy shaxslarning xarajatlarni qisqartirish.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirish, innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni amaliy faoliyatga keng joriy qilish kabilar yuzasidan islohotlar amalga oshirilmoqda. "...Zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish, innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish, 2025-yilda korxonalar resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish"² kabi vazifalar belgilangan. Bu borada milliy iqtisodiyotni sifat jihatdan rivojlantirishga ko'ra xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lamini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 24-maydagi PF-76-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-

¹Goldin I. (2021) Covid – 19 is increasing multiple kinds of inequality. Here's what we can do about it. World Economic Forum.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Lex.uz.

tadbirlari to‘g‘risida’gi farmonlari, 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 1-fevraldagi PQ-51-son “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha jahonning yirik tadqiqotchilari, jumladan³ Negroponte N.Being, J.M.Keyns, U.Peti, A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, M.Fisher, F.Kotlyar, A.Pigu, Y.A.Shumpeter, P.Porter, P.Druker, B.S.Santo, G.Mensh, G.P.Pisano va boshqalar tomonidan tadqiq etishgan.

MDH olimlaridan⁴ Kastels M., Ageev A.I., Goldovskiy I., Koze D., Ilayes E., Yurasov A., Uspenskiy I., Shnayder D., Yi Bo Jao, Steffano K., Hossein B. boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tadqiqotiga mahalliy olimlardan⁵ S.S. Gulyamov,

³Negroponte N.Being digital.Kent, 1995; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. С Англ. проф. Н.Н.Любимова, под.ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Пети У., Смит А., Рикардо Д., Кейнс Дж., Фридмен М. Классика экономической мысли. Соч. – М.: ЭКСИМО-Пресс, 2000; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987.-500 p.; Котляр Ф. Основы маркетинга. – М.: Изд. Дело, 2006; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Портер М. Конкуренция / Пер. с англ. – М.: ИД «Вильямс», 2005 г. – 682-стр.; Друкер П. Бизнес и инновации / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 с.;

⁴М.Кастельс. Информационная эпоха. Экономика, общество и культура. Litres. 2019, 609 С.Голдовский И., Безопасность платежей в Интернете, Издательство: Питер, 2001; Козье Д., Электронная коммерция, Русская редакция, 1999 г.; Илайес Э., Электронная коммерция, Практическое руководство, из. ДиаСофтЮП, 2002 г.; Юрасов А., Основы электронной коммерции, уч.из Tempus, 2016 г.; Успенский И.В., Интернет-маркетинг, Учебник.- СПб.: Изд-во СПГУЭиФ, 2003 г.; Шнайдер Д., Метакапитализм и революция в электронном бизнесе. Какаими будут компании в XXI веке. Альпина Паблишер. 2001 г.; Yi-Bo Zhao, «Environmental benefits of electronic commerce over the conventional retail trade? A case study in Shenzhen, China», Science of The Total Environment 8 May 2019; Стеффано К., Жуанито Э., The E-Commerce Book, Building the E-Empire, eBook ISBN: 9780080518800, October 16, 2000; Хоосейн Б., Electronic Commerce, eBook ISBN: 9780080505299, August 23, 2001.

⁵Gulyamov S.S. Ayupov R., «Elektron tijorat asoslari», elektron kitob, 2020-y. <https://kitobxon.com/uz/kitob/elektron-tijorat-asoslari>; Turdiboev D., «Elektron tijorat tizimlari va ularning ahamiyati», <http://library.ziyonet.uz/uz/-book/80012>, 2016; Raximov A., «Elektron to‘lov tizimlari va ularning ahamiyati», <http://library.ziyonet.uz/ru/book/8216>, 2014; Urazaliev K., «Elektron tijorat va uni soliqqa tortish masalalari». Dissertatsiya. 2019-y.; E Zion-Saukhanov M Kovo, , L Schreiber, N Mevorach, M Divon, [The effect of maternal obesity on pregnancy outcome in correlation with placental pathology](#). Reproductive sciences 22 (12), 1643-1648; Қалмуратов Б. С. Бекимбетов Д.Р. Социально-экономический базис для формирования стратегии

Qalmuratov B.S., Turdiboev D., Raximov A., Urazaliev K., Sauxanov J.K., Ayupov R., Shixiev R., Nuralieva M., Yuldashev M. va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Ta'kidlash lozimki, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatishda raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish orqali tashkilot va korxonalar, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlarni chuqur tadqiq qilish mazkur mavzuda ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot O'zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sifati va tarkibini takomillashtirishning nazariy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy iqtisodiyotni sifat jihatdan rivojlantirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning kategoriya sifatidagi mohiyati, ahamiyati, rivojlantirishning zarurlari, shart-sharoitlari mohiyati, mazmuni va ahamiyatini hamda mualliflik yondashuvini asoslash;

xizmat ko'rsatish sohasida raqamlashtirishning hozirgi holati va unga ta'sir etuvchi omillarini hamda xizmat ko'rsatish sohasi subyektlarida raqamlashtirishni rivojlanishining tahlilini amalga oshirish;

xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibiy o'zgarishi va rivojlanishida raqamli kompetensiyalar tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq etish;

xizmat ko'rsatish sohasida raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar tizimini kompleks tahlil qilish;

xizmat ko'rsatish sohasining sifatini oshirish, tarkibini takomillashtirishda raqamlashtirishning asosiy komponentlarini iqtisodiy jihatdan baholash;

развития сферы услуг и его роль в развитии экономики. Санли экономика шараятında аймақта, исибилерменлик, инновасиялық технологиялар ҳам санаат инфраструктурасын жедел пátте раважландырыў перспективалары: машкала ҳам сешимлер атамасындағы Республикалық илимий-амелий конфересия 2023 јил 10-oktyabr 569-571 betler; J.Sauxanov, R. Shixiev Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda texnikadan samarali foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. Nur tiran print. 2024 -168 б. Nuralieva M., «Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish», 2022, <https://oak.uz/pages/7131>; Yuldashev M., «Jahon iqtisodiyotiga kirish sharoitida O'zbekistonda elektron tijorat tizimining rivojlanishi», i.f.n.ligi dissertatsiyasi, Fanlar akademiyasi, 2005.

xizmat ko'rsatish sohalorida barcha ma'lumotlarni raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llab saqlash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimi sifatidagi samaradorligini oshirish takliflarini ishlab chiqish;

xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini raqamlashtirish hisobiga o'zgartirishga erishishning istiqboli bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar ko'rsatish sohasini raqamlashtirish bo'yicha tegishli tashkilotlar va korxonalar olingan.

Tadqiqot predmeti xizmat ko'rsatish sohalorida raqamlashtirishni takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlashtirish, tizimli va statistika tahlil, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, ekspert baholash va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohalari tarkibiy o'zgarishi va ularni rivojlantirishda raqamlashtirish dinamikasini prognozlashda to'lov qobiliyati muhim ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanib, raqamlashtirishning ta'sir ko'rsatuvchi omillari guruhlangan va tarkibiy elementlari asoslangan;

sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish darajasini oshirishga ko'ra hududiy tashkilotlar faoliyatining elektron monitoringi va sohada korrupsion holatlarni aniqlash darajasini oshirish, ular faoliyatini reyting baholash tizimi takomillashtirilgan holda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, "yagona elektron tibbiy karta" axborot tizimi taklif qilingan;

xizmat ko'rsatish sohalarini raqamlashtirishning konseptual asosi sifatida insonni rivojlantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tizimlarini integratsiyalashga ko'ra masofaviy bandlikni ish joylarining imkoniyatlarini tadqiq etish asosida oshirishning elektron konseptual modeli asoslangan;

Jizzax viloyatida xizmatlar ko'rsatish va servis sohalari samaradorligini oshirish va raqamlashtirishga ko'ra rivojlantirishning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko'rsatish sohalorida raqamlashtirishni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimlashtirilgan, biznes turini tanlash va raqamli muhitda faoliyat yurituvchi zamonaviy korxonalarni boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan texnologik o'zgarishlar asosida xizmat ko'rsatish subyektlarining innovatsion raqamli infratuzilmasi va baholash mezonlari bo'yicha takliflar asoslangan;

xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun talab yuqori bo'lgan yangi istiqbolli xizmatlar turini rivojlantirish, mazkur soha kadrlarini kasbiy jihatdan tayyorlash yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

ma'lumotlaridan olingani hamda taklif etilgan xulosa va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan raqamlashtirishning tashkiliy-tarkibiy elementlarini tasniflash, xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli xizmatlarning konseptual modelini ishlab chiqish hamda iste'molchi, ishlab chiqaruvchi va vositachilar o'rtasidagi axborot mahsulotlari bozorini masofaviy ishlashiga erishish usullarini takomillashtirish yo'nalishida ilmiy apparatni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xizmat ko'rsatish sohalari faoliyatida IT texnologiyalari resurslaridan samarali foydalanish, xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish, sohaga oid me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi hamda "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti", "Tarmoqlar iqtisodiyoti" va "Elektron tijorat" fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmat ko'rsatish sohalari raqamlashtirishni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

xizmat ko'rsatish sohalari tarkibiy o'zgarishi va ularni rivojlantirishda raqamlashtirish dinamikasini prognozlashda to'lov qobiliyati muhim ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanib, raqamlashtirishning ta'sir ko'rsatuvchi omillari guruhlangan va tarkibiy elementlari taklifidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan vazirlikning dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 05-28/12704-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida tizimlashtirish va tasniflash orqali raqamli kompetensiyalar tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi va to'siq bo'luvchi omillarni yanada aniqroq aniqlash imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish darajasini oshirishga ko'ra hududiy tashkilotlar faoliyatining elektron monitoringi va sohada korrupsion holatlarni aniqlash darajasini oshirish, ular faoliyatini reyting baholash tizimi takomillashtirilgan holda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, "yagona elektron tibbiy karta" axborot tizimi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5199-son qaroriga asosan tibbiy xizmatlarni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, tibbiy xizmatlarni takomillashtirishda "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar" dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Sog'liqni saqlash

vazirligining 2025-yil 9-iyundagi 05-28/12704-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif tibbiyot sohasini raqamlashtirish asosida korrupsiyadan holi tizimga aylantirish orqali strategik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning konseptual asosi sifatida insonni rivojlantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tizimlarini integratsiyalashga ko'ra masofaviy bandlikni ish joylarining imkoniyatlarini tadqiq etish asosida oshirishning elektron konseptual modeli bo'yicha taklif Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-76-son farmoniga muvofiq, xizmat ko'rsatishda raqamlashtirishni kengaytirish natijalarini baholash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda va xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishni baholash amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 4-iyundagi 4-17-4/6-8-05 son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif raqamlashtirishga ko'ra tadbiriq etilayotgan masofaviy bandlikni oshirishning elektron konseptual modelini qo'llash amaliyoti masofaviy bandlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosini muddatida sifatli taminlash imkoniyatini oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

Jizzax viloyatida xizmatlar ko'rsatish va servis sohalari samaradorligini oshirish va raqamlashtirishga ko'ra rivojlantirishning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari Jizzax viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlangan "Jizzax viloyatida aholiga xizmat ko'rsatish va mazkur sohani raqamlashtirish dasturi" va "Yo'l xarita"larini ishlab chiqishda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimligining 2025-yil 4-maydagi 03-01-255-son ma'lumotnomasi). Taklif viloyat bo'yicha aholiga jami xizmat ko'rsatish hajmini 2024-yilga nisbatan 2030-yilda 2,16 barobarga oshirish, xizmatlar turlarini ko'paytirish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot asosiy natijalari 11 ta, jumladan respublika miqyosida 3 ta va xalqaro darajadagi 8 ta ilmiy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ushbu dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika

fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko‘rsatish sohaslarida raqamlashtirishni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning mohiyatini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “raqamlashtirish” kategoriyasining mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasi tarkibiy o‘zgarishida raqamli kompetensiyalarga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, xizmat ko‘rsatish sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohaslarini raqamlashtirishda maqbul tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini joriy qilish, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar, jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berishi nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilish barcha iqtisodiy jarayonlarni tezlatish imkonini beradi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish davrida hamda axborot qiymati shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda jamiyat tub o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirmoqda. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, raqamli iqtisodiyotda mamlakatning asosiy aktivi inson kapitali va uning sifati bo‘ladi, ya‘ni, yangi texnologiyalar sohasida chuqur bilimlarga ega, ularni hayotga tatbiq eta olishga qodir, eski narsalarni takomillashtira oladigan mutaxassislar asosiy kuch deb hisoblanadi.

Tadqiqotchi tomonidan, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat ekanligi chuqur ilmiy o‘rgangan holda va raqamlashtirish global jarayonlarni bir necha jihatdan osonlashtirish bo‘yicha nazariy qarashlar tadqiq etilgan.

Tadqiqot jarayonida raqamli platformalardan ko‘proq foydalanish transchegaraviy tranzaksiyalar xarajatlarini kamaytirishga olib kelishning bir nechta konsepsiyalari muallif tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, korxonalarga istalgan mamlakatdagi mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini kengaytirish ko‘rsatib berilgan. Globallashtirishning ijobiy tomonlari eng yirik transmilliy korporatsiyalarga xos bo‘lgan, ayni paytda kichik va o‘rta korxonalar ham xalqaro savdoda ishtirok etish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot ishida xizmat ko‘rsatish sohaslari tarkibiy o‘zgarishi va ularni rivojlantirishda raqamlashtirish dinamikasini prognozlashda to‘lov qobiliyati muhim ta‘sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholanib, raqamlashtirishning ta‘sir ko‘rsatuvchi omillari guruhlangan va tarkibiy elementlari asoslangan. Xizmatlar sohaslarida raqamlashtirishning o‘rni sifatli raqamli inratuzilma bilan ta‘minlash va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohalarining tarkibiy o'zgarishi va rivojlanishida raqamlashtirishning ta'sir ko'rsatuvchi omillari⁶

Yuqoridagi rasmda xizmatlar sohalarida raqamlashtirishning o'rnini sifatli raqamli infratuzilma bilan ta'minlash va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar guruhlangan, xizmat ko'rsatish tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tuzilmaning o'ziga xosligi asoslangan.

Shuningdek, sohadagi tarkibiy o'zgarish va uni rivojlantirishda raqamlashtirish dinamikasini prognozlashda to'lov qobiliyati muhim ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, raqamlashtirish ko'lami va sifati iqtisodiy o'sishning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning ayrim jihatlarini baholashga imkon beradigan ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda ma'lum nazariy va amaliy tajribalar to'plangan. Ushbu sohada yaxlit tavsifga ega yondoshuvlarni takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Mavjud tadqiqotlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining shakllanishi muayyan bazaga ega bo'lishi kerak, unda raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish, axborot xavfsizligini ta'minlash, On-Line xizmatlarni kengaytirish, fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va On-Line kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish va raqamli tizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirishga erishish. Bugungi kunda raqamlashtirishning xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishdagi o'rnini oshirishda mazkur sohalarda korxonalar va tashkilotlar o'zlarining ish faoliyatiga raqamlashtirishni qo'llash natijalarida qulayliklarga erishishlari natijasida resurslardan samarali foydalanish

⁶ Muallif ishlanmasi.

imkoniyatini yaratadi va xodimlarning mehnat unumdorligini ko‘tarishga xizmat qiladi (1-jadval)

1-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohalarini raqamlashtirishning tarkibiy elementlarini joriy etish strategiyasi⁷

| Komponent | Hozirgi muammo | Amaliy qadamlar | Natija |
|-------------------------------------|-----------------------------------|---|--|
| Bozor, mijozlar | Elektron tijorat hissasi | Raqamli xizmatlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ta‘minlovchi vositalar | Xizmatlar ko‘rsatishda samarali ta‘sir va to‘lov qobiliyati |
| Biznes jarayonlari | Noto‘g‘ri belgilangan strategiya | Raqamli xizmatning strategik maqsadlari va indikatorlari | Ishlab chiqaruvchilarni masofaviy ishlashiga erishish |
| Innovatsiyani rivojlantirish | Bozorni tahlil qilish | Innovatsion xizmatlar turlarini kengaytirish sifatini yaxshilash, ularning tannarxini kamaytirish | An‘anaviy iqtisodiyotni, raqamli iqtisodiyotga aylantirish |
| Yo‘nalish | An‘anaviy yondashuv | Tizimli ta‘sir va uning izchilligini ta‘minlash | Samarali kommunikatsion muloqot |
| Kasbiy tayyorlov | Xodimlarning kasbiy imkoniyatlari | Inson kapitali va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish | AK texnologiyalari bo‘yicha kognitiv va ko‘nikmalarni shakllantirish |
| Ko‘nikmalar almashinuv | Bozorni tahlil qilish | Ko‘nikmalar matritsasi va o‘rgatish platformasi, elektron tijorat platformasi | Xizmatlar tarkibining zamonaviy texnologiya hisobiga o‘zgartirish |
| Baholash tizimi | Yilda 1-2 marta baholash | Mijozlar fikri integratsiyasi | Ishchi motivatsiyasi oshishi |
| Mukofotlash | Fiks maosh tizimi | Komanda natijalari bonusi Mijoz qoniqish ko‘rsatkichi Innovatsion g‘oyalar mukofoti | Jamoa samaradorligi oshishi |

Yuqoridagi jadvalda xizmat ko‘rsatish sohalarini raqamlashtirishning tarkibiy elementlarini joriy etish strategiyasi keltirilgan, tadqiqotchi fikricha, raqamlashtirish orqali mavjud platformani qamrab olgan holda samaradorlik ko‘rsatkichlariga, xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishda bandlik muammosiga, daromadlilik darajasiga, xarajatlarni optimallashtirishga erishishga ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishni takomillashtirish imkoniyatini oshiradi.

Dissertatsiya ishida sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish darajasini oshirishga ko‘ra hududiy tashkilotlar faoliyatining elektron monitoringi va sohada korrupsion holatlarni aniqlash darajasini oshirish, ular faoliyatini reyting baholash tizimi takomillashtirilgan holda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, “yagona elektron tibbiy karta” axborot tizimi taklif qilingan.

Xizmat ko‘rsatish xodimlari faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlashning asosiy maqsadi samaradorlikka erishish bilan bog‘liq ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga: raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish, ishchi kuchini tiklash uchun korxonalarining mavjud imkoniyatlari va natijalariga faol ravishda ta‘sir etishdan iborat. Buning ma‘nosi shuki, xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta‘minlash bir tomondan, olinadigan foydani


⁷ Muallif ishlanmasi.

ko'paytirishga ko'maklashishi, ikkinchi tomondan esa mehnatga qobiliyatli jamoa yarata olish imkonini beradi (2-rasm).

| Xizmat ko'rsatish sohaslarini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari | |
|--|---|
| Xodimlarning individual mehnat faoliyatini tashkil etish | Xizmat ko'rsatish korxonasi miqyosida |
| Mehnat taqsimoti. Mehnat normalarini takomillashtirish. Mehnat sharoitini yaratish. Ish joyini tashkil etish. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish. Ish joylarini ixtisoslashtirish. Xodimning mehnat natijalaridan manfaatdorligini oshirish. Mehnat unumdorligini oshirish rezervlarini aniqlash | Korxonaga ilg'or mehnat usullari va uslublarni joriy etish. Xizmat ko'rsatish jarayonida mehnatning buyumlashgan elementlaridan foydalanishni yaxshilash. Xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish. Xizmatlar bozori kon'yunkturasi bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish. Xodimlar faoliyatini texnik taraqqiyot elementlari bilan muvofiqligini ta'minlash. Xizmatlarni iste'mol qilish jarayonining tashkiliy texnik samaradorligini oshirish. Xodimlar sifat tarkibini takomillashtirish |

2-rasm. Xizmatlar ko'rsatish korxonalari faoliyatlari samaradorligini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlari⁸

Raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyasi sharoitida ushbu sektorni samarali tashkillashtirish va iqtisodiy jihatdan kompetent boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xizmatlar bozori talablariga moslashuvchan, mos ravishda tashkiliy strukturalari maqbullashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimi nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki uning umumiy iqtisodiy samaradorligini ham sezilarli darajada ta'minlaydi.



3-rasm. Sog'liqni saqlash tizimining elektron monitoringi tashkiliy asoslari va yagona elektron tibbiy karta axborot tizimi sxemasi⁹

⁸ Muallif ishlanmasi.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimidagi transformatsiya jarayonida sohani to‘liq raqamlashtirish orqali xizmatlar sifati va ko‘lamini yanada oshirish bo‘yicha yangicha yondoshuvlarni talab qilmoqda. Qolaversa, sog‘liqni saqlash tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlik oshirilishiga erishiladi, bunda elektron tibbiy karta, telemeditsina va onlayn navbatga yozilish kabi xizmatlar faoliyati zamonaviy talablar asosida shakllanishiga erishiladi. Shu o‘rinda sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish darajasini oshirishga ko‘ra hududiy tashkilotlar faoliyatining elektron monitoringi va sohada korrupsion holatlarni aniqlash darajasini oshirish asosida “yagona elektron tibbiy karta” axborot tizimi taklif qilingan (3-rasmga qarang).

3-rasmda sog‘liqni saqlash tizimining elektron monitoringi tashkiliy asoslari va yagona elektron tibbiy karta axborot tizimi sxemasi keltirilgan bo‘lib, bu tizimni raqamlashtirish va elektron monitoringning tashkiliy asoslari axborot texnologiyalari yordamida axborot va ma‘lumotlarni qayta ishlash, saqlash, hamda qidiruvni amalga oshiradigan “elektron ofis”ni tashkil etishni taqozo etadi. Bunda elektron ofis boshqaruv tizimi orqali avtomatlashtirish va boshqaruvchilarni axborot bilan yaxshiroq ta‘minlash imkonini beradi. Bu bilan esa yagona elektron tibbiy karta axborot tizimi shakllanadi. Natijada sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruvdagi ortiqcha tartib-taomillarni qisqartirish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish qamrovini kengaytirish hamda mazkur yo‘nalishdagi transformatsiya dasturlarini izchil amalga oshirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Demak, raqamli iqtisodiyotni samarali rivojlantirish, avvalo, uning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, amaliy jihatdan esa — o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tegishli normativ-huquqiy bazani shakllantirishni talab etadi. Zero, har qanday iqtisodiy model singari, raqamli iqtisodiyot ham barqaror huquqiy asos va strategik yondashuv mavjud bo‘lgan taqdirdagina kompleks va izchil rivojlanish yo‘liga kiradi.

Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan davr davomida jami xizmatlar tarkibida shaxsiy xizmatlari (4,3) kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar (1,2) kamayish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Jami xizmatlar tarkibida 2024-yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 128,6 %, savdo va ovqatlanish xizmatlarining ulushi 112,5 % ni tashkil etgan (2-jadvalga qarang).

Jadval ma‘lumotlarida jami xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar (122,0%), ta‘lim xizmatlari (127,0 %), sog‘liqni saqlash xizmatlari (119,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (128,6 %), jami xizmatlarning yarmidan ortig‘i aynan ushbu xizmatlar ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tadqiqot ishining obyekti hisoblangan xizmat ko‘rsatishning sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish, kasallikni aniqlashda foydalaniladigan barcha maxsus apparatlar, onlayn maslahatlar, moslashtirilgan veb-dasturlar va boshqa raqamli xizmatlar bo‘yicha bir qator rivojlangan xorijiy tajribalarni o‘rganish uchun Fransiya, Avstriya, Litva va boshqa shu kabi dunyoning ko‘plab mamlakatlarining tajribalarini o‘rganildi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish va servis sohaslarining tarkibi, jamiga nisbatan foizda¹⁰

| Xizmatlar turlari | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|
| Jami – xizmatlar | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| Savdo xizmatlari | 103,8 | 112,3 | 108,3 | 110,6 | 112,5 |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 123,8 | 126,4 | 128,8 | 125,4 | 128,6 |
| Transport xizmatlari | 91,4 | 115,7 | 111,8 | 107,2 | 113,6 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 80,3 | 132,3 | 122,3 | 113,5 | 114,2 |
| Moliyaviy xizmatlar | 125,6 | 128 | 131,7 | 121,6 | 122,0 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 90 | 123,1 | 110 | 112,6 | 110,6 |
| Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari va tahlil sohasidagi xizmatlar | 93,3 | 117,9 | 105,9 | 101,5 | 102,7 |
| Ijara xizmatlari | 98,4 | 118,7 | 112,6 | 102,4 | 106,5 |
| Ta‘lim sohasidagi xizmatlar | 101 | 130,8 | 114,1 | 123,1 | 127,0 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 94,8 | 128,5 | 113,4 | 112,3 | 119,2 |
| Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar | 94,5 | 122,9 | 106,6 | 105,3 | 103,8 |
| Shaxsiy xizmatlar | 94,7 | 114,4 | 107,1 | 106,3 | 102,0 |
| Boshqa xizmatlar | 99,7 | 113 | 114,4 | 125,7 | 111,6 |

Jahonning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida raqamlashtirilgan innovatsion-texnologik taraqqiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohaslarining sifat jihatidan rivojlanishi iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lishi va sohaning jadal ijtimoiylashuvi sharoitida soha korxonalari raqobatbardoshligini muntazam oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda¹¹ “yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 65-80 %, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmining ulushi 40,0 % xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda”.

Rivojlangan davlatlar “raqamli iqtisodiyot”ning joriy qilinishida juda katta foyda ko‘rmoqda. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard dollardan ko‘proq “raqamli xizmat”larni eksport qilmoqda. Bugungi kunda ushbu davlat yalpi ichki mahsulotining 5% dan ko‘prog‘i Internet va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq sohalarga to‘g‘ri kelyapti. 2025-yilgacha AQSH sanoatni “raqamlashtirilishi”dan qo‘shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo‘lishi aytilmoqda¹².

Xizmat ko‘rsatish sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlarini Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev alohida ta‘kidlaganidek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Natijada YAIMni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi¹³”. “Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

¹¹<http://stqts.oecd.org>

¹² Доклад Всемирного банка о мировом развитии «Цифровые дивиденды» // <http://www-wds.worldbank.org>

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020. Lex.uz.

mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda”.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston Respublikasida tibbiy xizmatni raqamlashtirish tendensiyalari va samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili”** deb nomlanib, unda tibbiy xizmat ko‘rsatishda raqamlashtirish tendensiyalari va huquqiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish omillari samaradorligini baholash va xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan.

Muallifning fikricha bu borada tibbiy xizmat ko‘rsatishda raqamlashtirish tendensiyalari va huquqiy asoslarini alohida tadqiq qilishimiz maqsadga muvofiq, zero aholining hayot sifatiga, umr kechirish davomiyligiga bevosita daxldor bo‘lgan mazkur sohaga katta e‘tibor qaratilmoqda, jumladan keyingi 7 yilda sog‘liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi 5,9 trillion so‘mdan 33,5 trillion so‘mga, ya‘ni 6 barobar oshirildi. Tibbiyot muassasalari yetarlicha raqamlashtirilmagani sababli sug‘urta tizimining rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, barcha tibbiyot muassasalar yangi kompyuter va texnika vositalari bilan jihozlanishiga e‘tibor qaratish lozim.

“Mamlakatimizda 3 mingdan ortiq tibbiyot muassasasi bo‘lib, ularning 423 tasi birlamchi tibbiyot muassasasi “Elektron poliklinika” axborot tizimiga ulangan. Lekin ishchilarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda 28 milliard so‘m ajratilgan bo‘lsada, bu boradigi ishlar sust kechmoqda”¹⁴. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar belgilanib, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” tizimlari sinov tariqasida tashkil qilinib, aholi tomonidan to‘lanayotgan umumiy soliqlar hisobidan bo‘ladi va odamlardan qo‘shimcha badallar undirilmaydi.

Aholiga kafolatlangan paket doirasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar bo‘yicha dori vositalari elektron retsept asosida dorixonalar orqali bepul beriladi.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrda PQ–415-son qarori — “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” nomli hujjatida sog‘liqni saqlash tizimini raqamli transformatsiyalash bo‘yicha muhim tashkiliy-huquqiy asoslar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoj parametrlarini aniqlash jarayoni mehnat bozorida shakllangan mavjud tendensiyalarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nisbatga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarini kompleks o‘rganish asosida amalga oshirildi. Bu jarayonda iqtisodiyotda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishlar natijasida yuzaga keladigan mehnat resurslari tarkibidagi

¹⁴ [https:// President.uz/uz.Lists/View/43372](https://President.uz/uz.Lists/View/43372)

o'zgarishlar, xususan, bo'shayotgan xodimlarning soni va tarkibi alohida e'tibor markazida bo'ldi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari¹⁵ (ming kishi)

| Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 . | 2022 | 2023 | 2024 |
|---------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Mehnat resurslari soni | 18666,3 | 18829,6 | 18949 | 19158,2 | 19334,9 | 19517,5 | 19724,9 | 19997,3 |
| Iqtisodiy faol aholi soni | 14357,3 | 14641,7 | 14876,4 | 14797,4 | 14980,7 | 15038,9 | 15041,9 | 15096,4 |
| Ish bilan band aholi soni | 13520,3 | 13273,1 | 13541,1 | 13236,4 | 13538,9 | 13706,2 | 14017,8 | 14260 |
| Ishsizlar soni | 837 | 1368,6 | 1335,3 | 1561 | 1441,8 | 1332,7 | 1024,1 | 836,4 |

Ushbu jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2017–2024-yillarda O'zbekistonda mehnat resurslari soni 18,6 mln. kishidan 19,9 mln. kishigacha oshgan. Iqtisodiy faol aholining soni ham 14,3 mln. kishidan 15 mln. kishiga yetgan. Shu davrda band aholi 740 ming kishiga ko'paygan. Eng yuqori ishsizlik 2020-yilda (1561 ming kishi) qayd etilgan bo'lsa-da, 2024-yilda 836,4 ming kishigacha kamaygan. Bu bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasidir. Shu bilan birga, bandlik o'sish sur'ati iqtisodiy faol aholi o'sishidan past bo'lib qolmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirish strategiyasi mazkur sohaning raqobat darajasini ko'rsatish, strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va strategik samaradorligini ifodalab beradi hamda sohani rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bunda rejalashtirilayotgan strategik rejalar bir tomondan raqamlashtirish asosida sohani maqsadli yo'naltirish, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimini shakllantirish va tahlil qilish, obyektlar va raqamli kompetensiya mezonlarini boshqaruv darajalari bo'yicha taktik va operatsion aniqlashga imkon yaratadi, strategiya samaradorligini oshirishda raqamli xizmat ko'rsatish strategiyasini takomillashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot ishida aniqlanishicha, raqamli xizmat ko'rsatish strategiyasini ta'minlash tizimini yaratishdan ko'zlangan maqsad taqdim qilinayotgan xizmatlar raqobatbardoshligi va xizmatlar sifatini oshirish bo'lib, strategik qarorlarga xarajatlarni pasaytirib borish, investitsiyalarni jalb qilish, biznesni kengaytirish, nazorat, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, rag'batlantirish ham ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda xizmatlar ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish sohaning operatsion, investitsiya, moliya, marketing faoliyati strategiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va maqsadlarini muvozanatlash, ishlab chiqarish, investitsiya va moliyaviy siyosatni ishlab chiqish, keng miqyosda raqamlashtirish hamda optimallashtirish vazifalarini tizimli va har tomonlama hal qilish, moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslaridan samarali foydalanish korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatini oshiradi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimining viloyatlar kesimida o'zgarib borishi quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (4-jadval).

¹⁵O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlashning o‘shish sur‘ati¹⁶
(% hisobida)

| Hududlar | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. |
|---------------------------------|--------------|-------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| O‘zbekiston Respublikasi | 114,7 | 94,8 | 128,5 | 113,4 | 112,3 | 110,5 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 103,5 | 93,9 | 118,7 | 115,8 | 118,7 | 117,2 |
| Andijon | 112,1 | 95,8 | 121,7 | 113,3 | 98,1 | 119,5 |
| Buxoro | 111,4 | 83,7 | 128,4 | 132,9 | 106,6 | 110,5 |
| Jizzax | 111,6 | 88,6 | 157 | 103,9 | 113,2 | 103,5 |
| Qashqadaryo | 121,3 | 95,1 | 127,8 | 108,7 | 120,3 | 122 |
| Navoiy | 125,8 | 106 | 125,1 | 117,9 | 103,2 | 102,2 |
| Namangan | 122,5 | 78,4 | 147,3 | 116 | 110,7 | 111,8 |
| Samarqand | 112,7 | 125,1 | 120,4 | 122,9 | 117,3 | 115,9 |
| Surxondaryo | 117,9 | 107,4 | 178,4 | 81,4 | 113,1 | 104,3 |
| Sirdaryo | 124,1 | 104,5 | 150,4 | 107,9 | 115,5 | 110,9 |
| Toshkent | 114,4 | 77 | 165,4 | 124,8 | 122,5 | 110,2 |
| Farg‘ona | 108,2 | 96,4 | 135,5 | 114,9 | 107 | 101,1 |
| Xorazm | 114,3 | 110,5 | 130,3 | 111,7 | 112,2 | 117,8 |
| Toshkent shahri | 115,5 | 94,9 | 116,5 | 110,7 | 111,9 | 109,6 |

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sog‘liqni saqlashning o‘shish sur‘ati respublikamiz bo‘yicha 2024-yilda 110,5, % ni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich viloyatlar kesimida turlicha o‘zgarib borishi kuzatiladi, jumladan, eng yuqori guruhga Qashqadaryo viloyatida (122 %) Andijon viloyati (119,5 %), Xorazm viloyatida (117,8 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (117,2%) hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, eng quyi ko‘rsatkich Farg‘ona (101,1 %) va Navoiy (102,2 %) viloyatlari hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Dissertatsiyaning **“Xizmatlar sohasi raqamlashtirilishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni konseptual yo‘nalishlari”** deb nomlangan bobida Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy va samarali ish joylarini yaratishning omili sifatida, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirishning konseptual yo‘nalishlari va Jizzax viloyati aholisiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellar yordamida prognoz parametrlari ishlab chiqildi, hamda istiqbolli yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar Top-50 mamlakatlari qatoriga kirish belgilangan. Bunda innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish lozim”. Bu vazifalarni hal etishda ilg‘or innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda hududlarni rivojlantirish, eng muhim xizmatlar turlari, jumladan tibbiyot sohasini raqamlashtirishda zamonaviy raqamli kompetensiyalardan keng foydalanish lozim.

¹⁶ <http://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ma'lumki, bir necha yillar davomida raqamli transformatsiya kishilarda faqatgina ma'lumotlarni an'anaviy shakllardan raqamli formatda saqlash sifatida tushunilgan, aslida bu ham raqamli transformatsiya yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning "tor ma'no"dagi talqinini ifodalaydi. Lekin bizning fikrimizcha, mazkur tushuncha faqatgina ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish emas, balki ancha keng ya'ni korxonalar va tashkilotlar raqamli ma'lumotlardan foydalanishning barcha imkoniyatlarini anglab yetishi bilan ushbu maqsadlar uchun maxsus jarayonlarni shakllantira boshladi.

Raqamli transformatsiya bu barcha darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning biznes-jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishidir. Bu yondashuv nafaqat zamonaviy uskunalar yoki dasturiy ta'minotni o'rnatishni, balki boshqaruv, korporativ madaniyat va tashqi kommunikatsiyalarga yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni ham nazarda tutadi. Mamlakatimizda xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari makroiqtisodiy, ijtimoiy-demografik, texnologik tendensiyalariga ega bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasini cheklovchi va raqamli transformatsiyani jadallashuvini ta'minlovchi tashqi va ichki omillar tizimini aniqlaydi. Shunga ko'ra, raqamli boshqarishni qo'llab-quvvatlash, raqamli kompetensiya markazini tashkil etish, biznes jarayonlarini boshqarishning moslashuvchan modelini yaratish hamda texnologik bazani shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar tasnifi ishlab chiqildi.


Muallifning tadqiqotlarida xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari raqamli kompetensiyalar tuzilmasini shakllantirishga tizimli yondashuvni shakllantirish zarur, u nafaqat instrumental ko'nikmalarni, balki raqamli savodxonlikni, ijodkorlikni, muloqot tajribasini va birgalikdagi faoliyatni ham o'z ichiga olishi kerakligi asoslangan.

Xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari raqamli kompetensiyalar tuzilmasini shakllantirishga tizimli yondashuvni shakllantirish zarur ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib, bu nafaqat instrumental ko'nikmalarni, balki raqamli savodxonlikni, ijodkorlikni, muloqot tajribasini va birgalikdagi faoliyatni ham o'z ichiga olishi kerakligi asoslangan. Raqamli iqtisodiyotni kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish kompetensiya modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, tegishli ta'lim loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlash keltirilib, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv muammolar o'rganildi va uni bartaraf etish bo'yicha muallifning takliflari ilgari surilgan.

Raqamli iqtisodiyotni kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish kompetensiya modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, tegishli ta'lim loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlashga asoslangan (5-rasmga qarang).

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar va tashkilotlardagi mehnat resurslarining qolgan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga qaraganda bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar sohadagi xodimlarning muomala san'ati, bilim darajasining yuqoriligi, kasbiy tayyorgarligi, mijozlar bilan ishlash madaniyati va boshqalar hisoblanadi. Mazkur sohada xizmatlarni amalga oshirish jarayonida xodim konkret buyumlarning juda nozik xususiyatlari bilan to'qnashadi

hamda ijtimoiy aloqalar, insonlarning ruhiyati, ongi bilan bevosita munosabatda bo‘ladi.



5-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi muammolar¹⁷

Tadqiqot jarayonida xizmatlar sohasini raqamli transformatsiyasi an‘anaviy tizimlar bilan integratsiyalash, bir nechta bozor vaziyatlarida tovarlar va xizmatlar uchun raqobatdosh ustunliklarni yaratishdan iborat. Xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqish raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslarini yaratishga yordam berishi asoslandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmatlarni rivojlantirish internet tarmog‘ida tibbiy muassasalarga kirishni ta‘minlash, sog‘liqni masofadan kuzatish, bundan tashqari davlat xizmatlarini takomillashtirish, O‘zbekistondagi barcha ta‘lim muassasalarini yagona axborot tizimiga ulash orqali ta‘limni rivojlantirish, sun‘iy intellektdan foydalanish asosida yirik ma‘lumotlar bazalarini shakllantirishda alohida o‘rin egalaydi. Bunda mijozlarni jalb qilish va rag‘batlantirish, biznes jarayonlarini boshqarishning moslashuvchan modelini yaratish hamda texnologik bazani shakllantirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasiga ta‘sir etuvchi omillar ham alohida tadqiq qilinadi.

Tibbiyot sohasini raqamlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadga muvofiq bo‘lib, hududlarda bemorlarning sog‘lig‘i va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma‘lumotlarni shakllantirish va saqlashga mo‘ljallangan “Yagona elektron tibbiy karta” axborot tizimini yaratish samaradorligini oshirish bo‘yicha muallif takliflari berilgan.

Mamlakatimizda xizmatlar sohasini raqamlashtirishning konseptual asosini insonni rivojlantirish siyosati bilan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish dasturlarini integratsiyalash zaruratining asoslanganligi tashkil etadi. Ya‘ni bu konseptual komponent modelning asosiy maqsadi va nazariy-metodologik asoslarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda masofaviy ish bilan bandlikning asosiy shakllari (uyda tashkil etilgan masofaviy ish bilan bandlik,


¹⁷ Muallif ishlanmasi.

shtatdan tashqari qo‘shimcha masofaviy ish bilan bandlik, markaz, mobil ish o‘rinlar) tadqiq etilib, respublikamiz sharoitida sog‘liqni saqlash sohasida masofaviy ish bilan bandlikning asosiy mezon va ko‘rsatkichlari aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning elektron konseptual modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, kadrlar malakasini uzluksiz oshirish va sohada samaradorlikni baholashning integrativ yondashuvini o‘z ichiga oladi, bu tizimning har bir bosqichi aniq maqsadlar, vazifalar va natijalarga yo‘naltirilgan. Model mazkur tizimdagi korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, unda mijozlar bilan bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa nuqtai-nazaridan zamonaviy raqamli texnologiyalarning inson resurslari boshqaruvidagi roli va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. (6-rasmga qarang).

Tadqiqot ishida raqamlashtirish sharoitida hududlarda mehnatga layoqatli aholining inson kapitalini rivojlantirish, ularni intellektual mehnatga keng jalb etish, shuningdek, raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va masofaviy bandlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari ilmiy asoslab berilgan. Mazkur konseptual model ikki bosqichda shakllantirilgan.

Birinchi bosqichda to‘plangan ma‘lumotlar asosida modelning maqsad va vazifalari belgilanadi, raqamli kompetensiyalar aniqlanadi hamda loyiha ustida ish boshlash uchun muhokamaga taqdim etiladi.



6-rasm. Raqamlashtirish sharoitida masofaviy bandlikni ish joylarining imkoniyatlarini tadqiq etish asosida oshirishning elektron konseptual modeli¹⁸

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

Ikkinchi bosqichda esa raqamli xizmatlar ko'rsatish jarayonlari amalga oshirilib, rejalar tuziladi, yakuniy maqsadlar aniqlanadi, loyihalashtirish asosida raqamli muhit va infratuzilma faoliyatidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan hududlarda masofaviy ish bilan bandlikning metodik asosini tashkil etuvchi "Masofaviy xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomasi" loyihasi taklif qilingan. Shu bilan birga mazkur elektron konseptual model asosida masofaviy ish joylarini yaratishning takomillashgan uslubiyati asosida sohada yangi ish o'rinlarini barpo etishning qo'shimcha imkoniyatlarini ochib berish mumkin bo'ladi.


Tizimda hududlar kesimida masofali ish joylarini, mehnatning innovatsion shakl va turlari bo'yicha mahallalarda masofaviy ish joylarga bo'lgan talab va moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni mutasaddi tashkilotlar investitsion loyihalariga uyg'unlashtirish negizida korrupsiyadan xoli tizimni takomillashtirishga erishish mumkin.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib ta'kidlash lozimki, raqamli iqtisodning amal qilishi klassik iqtisodga xos bo'lgan cheklovlarni yengishga imkon beruvchi iqtisodiy vositalarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- iqtisodiyotni raqamlashtirishning afzallik tomonlari
- raqamli iqtisodiyot barcha ma'lumotlarni raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llab saqlash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimi sifatidagi afzalligi,
- kishilarning moddiy mahsulotlar, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari doirasida raqamli mahsulotlarning taqsimlanishi,
- raqamli mahsulotlarning iqtisodiy-texnik xususiyatlarining mukammal ekanligi, almashinuv jarayonida yaxshilanishi mumkinligi,
- raqamli iqtisodiyot korrupsiya hamda yashirin iqtisodiyotning eng xavfli dushmani ekanligi.

Tadqiqot ishida Jizzax viloyatida xizmatlar ko'rsatish va servis sohalari samaradorligini oshirish va raqamlashtirishga ko'ra rivojlantirishning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Bunda Jizzax viloyati aholisiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish jarayonlarini baholashda trend modellaridan foydalanish lozim topilgan. Viloyat aholisiga xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan har biri rivojlanishining n-ko'rsatkichli va eksponensial ko'rinishda trend modellarini hosil qildik. Buning uchun jarayonning trend modellarini hosil qilishda eng kichik kvadratlar usulidan foydalanilgan.

Viloyat aholisiga jami xizmatlari ko'rsatish sohasining trend modellari 7-rasmda ko'rsatilgan. Rasmda ko'rib turganingizdek, jami xizmatlar ko'rsatish sohasining o'zgarish tendensiyasiga qarab, bir qancha modellari hosil qilingan, bulardan $R^2 = 0,9185$, $F_{\text{hisob}} = 146,509$ $t_{\text{hisob}}=12,104$ ($a=0,05$ bo'lganda, $t_{\text{jad}}=2,1314$, $F_{\text{jad}}=2,4034$) ga teng bo'lgan vaqtda, $Y_1X_k=158,34t^2-1444,3t+3386,6$ ko'rinishdagi regressiya tenglamasi tanlab olingan. Boshqa trend modellari ichida ham adekvat regressiya tenglamalar hosil bo'lgan, ammo hozirgi vaqtda xizmatlar ko'rsatish sohasining hajmining o'sishi, olib borilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda, trend modellaridan kvadratik regressiya tenglamasi tanlab olingan.



7-rasm. Jizzax viloyat aholisiga jami xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) hajmining trend modeli¹⁹

Viloyat aholisiga qolgan har bir xizmat ko'rsatish tarmog'ining trend modellarini hosil qilingan (5-jadval).

5-jadval

Jizzax viloyatida xizmatlar va servis sohasining tarmoqlar bo'yicha trend modellari

| Xizmat turlari | Regressiya tenglamalari | F-mezoni | t-mezoni |
|---|--|----------|----------|
| Y_1 - X_k - viloyat aholisiga jami xizmatlari ko'rsatish (mlrd.so'mda); | $y = 158,34t^2 - 1444,3t + 3386,6$ $R^2 = 0,9185$ | 146,509 | 12,104 |
| Y_2 - $Aaax$ -viloyat aholisiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko'rsatish | $y = 26,836t^2 - 224,09t + 406,2$ $R^2 = 0,9812$ | 678,489 | 26,048 |
| Y_3 - Mx -viloyat aholisiga moliyaviy xizmatlari ko'rsatish | $y = 25,059t^2 - 195,4t + 353,62$ $R^2 = 0,9917$ | 1553,265 | 39,411 |
| Y_4 - Sx - viloyat aholisiga savdo xizmatlari ko'rsatish | $y = 33,788t^2 - 259,05t + 666,33$ $R^2 = 0,9432$ | 215,873 | 14,692 |
| Y_5 - Ttx -viloyat aholisiga transport xizmatlari ko'rsatish | $y = 11,008t^2 - 58,917t + 279,69$ $R^2 = 0,9601$ | 312,815 | 17,687 |
| Y_6 - $To'x$ -viloyat aholisiga ta'lim xizmatlari ko'rsatish | $y = 3,6049t^2 - 21,036t + 56,109$ $R^2 = 0,9883$ | 1098,112 | 33,138 |
| Y_7 - SSx -viloyat aholisiga sog'liqni saqlash xizmatlari ko'rsatish | $y = 2,9034t^2 - 26,196t + 57,171$ $R^2 = 0,9305$ | 174,051 | 13,193 |
| Y_8 - MKx - viloyat aholisiga maishiy mollar va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari ko'rsatish | $y = 2,5478t^2 - 19,653t + 68,719$ $R^2 = 0,9265$ | 163,871 | 12,801 |

Bunda ham har bir xizmat ko'rsatish tarmog'i uchun bir qancha trend modellar hosil qilingan va ularni ham baholash mezonlari bo'yicha baholab hamda hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar asosida adekvat regressiya tenglamalari tanlab olingan. Har bir xizmat ko'rsatish tarmog'iga ikki xil ko'rinishdagi trend modellar tanlab olinganligi sababli har ikki holatda ham tenglama adekvat hisoblandi. Shunday bo'lsada hozirgi kunda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarni hisobga olgan holda tanlab olingan ikki regressiya tenglamalaridan optimali bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

¹⁹Muallif ishlanmasi.

6-jadval

Jizzax viloyatida xizmatlar va servis sohasi tarmoqlarining trend modellari orqali olingan prognozi (mlrd.so'mda)

| YILLAR | Xk- viloyat aholisiga jami xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | Aaax-viloyat aholisiga aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | Mx-viloyat aholisiga moliyaviy xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | Sx- viloyat aholisiga savdo xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | Ttx-viloyat aholisiga transport xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | To 'x-viloyat aholisiga ta'lim xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | SSx-viloyat aholisiga sog'liqni saqlash xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) | MKx-viloyat aholisiga maishiy mollar va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari ko'rsatish (mlrd. so'mda) |
|--------------------------------|---|---|---|--|--|---|--|--|
| | Y1 | Y2 | Y3 | Y4 | Y5 | Y6 | Y7 | Y8 |
| 2024 (haqiqiy) | 20069,52 | 3029,4 | 3029,4 | 5077,2 | 2101,5 | 527,8 | 357,7 | 394,3 |
| 2025 | 20817,64 | 3690,78 | 3642,324 | 5171,258 | 2155,07 | 642,39 | 381,31 | 406,51 |
| 2026 | 24598,86 | 4352,278 | 4273,879 | 6027,21 | 2459,418 | 740,32 | 450,92 | 470,931 |
| 2027 | 28696,76 | 5067,448 | 4955,54 | 6950,74 | 2785,78 | 845,45 | 526,34 | 540,451 |
| 2028 | 33111,34 | 5836,29 | 5687,32 | 7941,85 | 3134,16 | 957,795 | 607,57 | 615,07 |
| 2029 | 37842,6 | 6658,8 | 6469,22 | 9000,53 | 3504,55 | 1077,35 | 694,61 | 694,78 |
| 2030 | 42890,54 | 7534,99 | 7301,24 | 10126,79 | 3896,96 | 1204,11 | 787,45 | 779,59 |
| O'rtacha o'sish surati, foizda | 115,5668 | 115,3557 | 114,933 | 114,3955 | 112,5826 | 113,3965 | 115,6216 | 113,9165 |
| 2030/2024 nisbatan | 2,137 | 2,487 | 2,410 | 1,995 | 1,8545 | 2,2815 | 2,2015 | 1,978 |

Hosil qilingan trend modellar asosida xizmat ko'rsatish tarmoqlarining 6 yillik rivojlanish jarayoni prognozi quyidagicha natijaga erishishi mumkin ekanligini hisoblangan (6-jadvalga qarang).

Olingan prognoz natija shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yil narxida tahlil qilsak, viloyat bo'yicha aholiga jami xizmat ko'rsatish 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,037 barobarga oshishi, 2024-yildagiga nisbatan 2030-yilga borib 2,137 barobarga oshishi kutilmoqda, o'rtacha o'sish surati 15,57 foizni tashkil etib 2024-yilga nisbatan 2030-yilda 22821,02 mlrd. so'm ortiqcha xizmat ko'rsatiladi. Shu bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, viloyat aholisiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko'rsatish sohasi 2024-yildagiga nisbatan 2025-yil yakunida 1,22 barobarga, 2030-yilga borib esa, 2024-yildagiga nisbatan 2,487 barobarga oshadi, o'rtacha o'sish surati 15,36 foizni tashkil etib 2024-yilga nisbatan 2030-yilda 4505,59 mlrd. so'm ortiqcha xizmat ko'rsatiladi.

Har bir sohani rivojlanishi uchun boshqa omillarning ta'siri ham muhim hisobladi. Biz olib borayotgan tadqiqotda ustuvor vazifalardan kelib chiqib, Jizzax viloyati aholisiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish holati statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalaridan xulosa qilish mumkinki, hududlar miqyosida aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishini prognoz qilishda ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

Viloyat aholisiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishini islohotlarga asoslanib prognozlash iqtisodiy-matematik usullardan foydalanish taqozo etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining har bir tarmog'ini alohida ekonometrik modellashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasining bir tarmog'ini rivojlanishi boshqa bir tarmog'i rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlantirishda o'zaro bog'langan tenglamalar tizimi ko'rinishdagi ekonometrik modellardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish tarmoqlari faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy - iqtisodiy mexanizmi bir-biri bilan o'zaro bog'langan elementlar va guruhlarining (subyektlar, obyektlar, tamoyillar, shakllar, usullar va vositalar) turli darajadagi ierarxik tizimini ifoda etadi, bundan tashqari, ularning o'zaro munosabatlari, innovatsion infratuzilma, bozor subyektlari bilan aloqalarni shakllantirib beradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dissertatsiyada xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirishning kategoriya sifatidagi mohiyati, ahamiyati, rivojlantirishning zarurlari o'rganilib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi, "Raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, xizmat ko'rsatish sohalarida raqamlashtirish xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirishni ta'minladi". Shuningdek,

raqamli iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha narsani qamrab olishi mumkin, ya'ni mantiqiy sxemalarda namoyon bo'ladi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bozor subyektlarining faoliyatida raqamli transformatsiyalarning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirishdan iborat ekanligi tadqiq qilindi.

2. Xizmatlar sohasida raqamlashtirishning o'rni sifatli raqamli inratuzilma bilan ta'minlash va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tadqiq qilinib, xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy o'zgarishi va rivojlanishida raqamli kompetensiyalar tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi tarkibiy elementlari tasniflandi.

3. Jahonning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida raqamlashtirilgan innovatsion-texnologik taraqqiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining sifat jihatidan rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lishi va sohaning jadal ijtimoiylashuvi sharoitida soha korxonalarini raqobatbardoshligini muntazam oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilmoqda. Tadqiqotda jahonning rivojlangan davlatlarida "raqamli iqtisodiyot"ning milliy yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rganilib, AQSH, Fransiya, Avstriya, Litva va boshqa davlatlar tajribasi kontinentlarga bo'lib o'rganildi. Rivojlangan davlatlar "raqamli iqtisodiyot"ning joriy qilinishida juda katta foyda ko'rmoqda. Jumladan, AQSH yiliga 400 milliard dollardan ko'proq "raqamli xizmat"larni eksport qilmoqda. Tahlil natijasida, kontinentlardagi raqamli xizmatlar sohasidagi o'zgarishlarga ta'sir etuvchi o'ziga xos xususiyatlar aniqlandi. Mamlakatimizda mavjud holatdan kelib chiqib, raqamli xizmatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. O'zbekistonda xizmat ko'rsatishda raqamlashtirish tendensiyalari va huquqiy asoslari, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish omillari samaradorligini baholash uning o'ziga xos jixatlarini hisobga olib, raqamli xizmat ko'rsatish strategiyasini ta'minlash tizimini yaratishdan ko'zlangan maqsad taqdim qilinayotgan xizmatlar raqobatbardoshligi va xizmatlar sifatini oshirish bo'lib, strategik qarorlarga xarajatlarni pasaytirib borish, investitsiyalarni jalb qilish, biznesni kengaytirish, nazorat, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, rag'batlantirish ta'sir ko'rsatishi tadqiq qilinib, raqamli xizmatlar strategiyasi usullari amalga oshirish tizimi ishlab chiqildi.

5. Muallifning tadqiqotlarida xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari raqamli kompetensiyalar tuzilmasini shakllantirishga tizimli yondashuvni shakllantirish zarur, u nafaqat instrumental ko'nikmalarni, balki raqamli savodxonlikni, ijodkorlikni, muloqot tajribasini va birgalikdagi faoliyatni ham o'z ichiga olishi kerakligi asoslangan. Raqamli iqtisodiyotni kadrlar bilan ta'minlash muammosini hal etish kompetensiya modelini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, tegishli ta'lim loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv muammolar o'rganildi va uni bartaraf etish bo'yicha muallifning takliflari ilgari surildi.

6. Tadqiqot davomida xizmat ko'rsatish korxonasi elektron tijorat samaradorligini baholash usuli elektron tijorat tizimiga sarflangan investisiyalar samaradorligi, tizimni loyihalashtirish samaradorligi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini guruhlash asosida takomillashtirildi.

7. Raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish tizimi sifatida xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ko'rsatkichlarini guruhlash asosida takomillashtirildi.

8. Xizmatlar sohasini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy asoslarini yaratishga yordam beradi. Jumladan, tibbiyot sohasini raqamlashtirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadga muvofiq bo'lib, hududlarda bemorlarning sog'lig'i va ularni barcha tibbiyot muassasalarida davolash uchun umumiy ma'lumotlarni shakllantirish va saqlashga mo'ljallangan "Yagona elektron tibbiy karta" axborot tizimini yaratish samaradorligini oshirish bo'yicha muallif takliflari berilgan.

9. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning konseptual asosi sifatida insonni rivojlantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tizimlarini integratsiyalashga ko'ra masofaviy bandlikni ish joylarining imkoniyatlarini tadqiq etish asosida uni oshirishning elektron konseptual modeli asoslanganligi tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, ikki bosqichli raqamli muhit va infratuzilma faoliyatining o'zgarib borishini tadqiq qilish asosida konseptual modeli ishlab chiqildi.

10. Jizzax viloyatida xizmatlar ko'rsatish va servis sohalari samaradorligini oshirish va raqamlashtirishga ko'ra rivojlantirishning 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Xizmatlar sohasining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash bo'yicha olib borilgan regressiya tahlili natijalariga ko'ra, Jizzax viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga xizmat ko'rsatish korxonalar soni, xizmatlar hajmi va ayniqsa aholi jon boshiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqori determinatsiya koeffitsienti ($R^2 = 0,963$) modelda tanlangan omillar xizmatlar sohasidagi o'zgarishlarning katta qismini izohlab berishini ko'rsatishi aniqlandi. Tahlil natijalari asosida, aholining xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, korxonalar faoliyatini rag'batlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar sohasining barqaror o'sishini ta'minlash, shuningdek, viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va aholining farovonligini oshirish mumkinligi aniqlangan va dissertatsiyada muhim ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАКА
ДЖИЗАКСКИЙ ФИЛИАЛ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА
УЗБЕКИСТАНА**

УСМОНОВА ВАСИЛА БОТИРОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СФЕРЕ УСЛУГ**

08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии по экономическим наукам (PhD) зарегистрирована под № В2024.1.PhD/Iqt4680 Высшей аттестационной комиссией, при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Джизакском филиале Национального университета Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Бобаназарова Жамила Холмуродовна
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович
доктор экономических наук, профессор

Рахимбердиев Кувончбек Бахтиёрович
доктор философии по экономическим наукам
(PhD)

Ведущая организация:

Гулистанский государственный
университет

Защита диссертации состоится « 25 » октября 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.01.2020.L20.06 по присуждению ученой степени при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. Адрес: 230112, г.Нукус, ул.Ч.Абдирова, 1. Тел: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

С дипломной работой можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирован под номером _____). Адрес: улица Ч. Абдирова, город Нукус, 230112. 1 дом. Телефон:(99861) 223-60-47; факс: (99861) 223-60-78; электронная почта: karsu_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан « 09 » октября 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 93 от « 09 » октября 2025 года).



Ж.К.Сауханов
Председатель ученого совета по
присуждению ученых степеней
д.э.н., профессор

Р.Б.Утемуратов
Ученый секретарь ученого совета
по присуждению ученых
степеней, PhD, доцент

Б.С.Калмуратов
Председатель научного семинара
при Ученом совете по
присуждению ученых степеней
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Стремительное развитие цифровых технологий в мире существенно влияет на качественные и количественные изменения в мировой и национальной экономике, в том числе в сфере услуг. Исследования Всемирного банка показывают, что «увеличение числа пользователей интернета на 10% может привести к увеличению объёма валового внутреннего продукта национальной экономики на 0,4–1,4% в год»¹. Учитывая значимость сферы услуг в развитии экономики и социальной сферы в современном мире, реализация организационно-экономических механизмов цифровизации данной сферы остается одной из актуальных проблем.

В мировой практике исследований, посвященных инновационному развитию отраслей экономики, в том числе развитию сферы услуг на основе цифровизации, приоритетное значение придается исследованиям, включающим обоснование основных направлений развития сферы услуг в обеспечении устойчивого экономического роста в условиях перехода к цифровой экономике; обоснование оптимальной организационно-управленческой структуры предоставления услуг в условиях цифровизации; снижение издержек населения за счет увеличения видов инновационных и цифровизированных услуг.

В процессе строительства нового Узбекистана реализуются реформы в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан-2030», включающие цифровизацию экономики, внедрение инновационных автоматизированных систем управления, широкое внедрение цифровых технологий в практическую деятельность.

В стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» указано: «...повысить качество продукции и услуг за счет внедрения современных информационных систем и программных продуктов, снизить их себестоимость, сократить сбои в производстве, повысить прозрачность финансово-хозяйственной деятельности, совершенствовать нормативно-правовую базу внедрения инновационных автоматизированных систем управления и программных продуктов, совершенствовать систему поддержки получения управленческой информации, в том числе за счет внедрения системы бизнес-аналитики в режиме реального времени, довести долю субъектов крупного предпринимательства, внедривших систему планирования ресурсов предприятия (ERP), до 90% к 2025 году»². В этой связи актуально увеличение масштабов исследований, направленных на совершенствование организационно-экономического механизма цифровизации и повышение его эффективности в сфере услуг для качественного развития национальной экономики.

¹ Goldin I. (2021) Covid – 19 is increasing multiple kinds of inequality. Here’s what we can do about it. World Economic Forum.

² Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации. Lex.uz.

